

**SHAXSNI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA TARBIYASINING  
AHAMIYATI**

*Rustamjonova Dilhavas Ravshanbek qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Ijtimoiy fanlar va san'at fakulteti,*

*“Tasviriy san'at va musiqa ta'limi” kafedrası talabasi*

**Annotatsiya:** Shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish - bu insonning jismonan, aqlan, ma'naviy tomondan kamolga yetish jarayonidir. Bu jarayonning o'ziga xos obektiv va sub'ektiv tomonlari mavjud. Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan va inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o'ynaydigan san'at turidir.

**Kalit so'zlar:** Shaxs, musiqa tarbiyasi, milliy madaniyat, ijro, san'at, fan, tarbiya.

Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: “Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda emasmikan, zero ki, ritm va garmoniya hammadan ko'proq shu vaqtda qalbga chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etib, uni ko'rkam qiladiki, agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, aks holda uning teskarisi bo'lib chiqadi”. Uning shogirdi Aristotel (Aflotun) komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlaydi. “Musiqa kishi ruhining ahloqiy tomoniga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyasiga, ta'sir etadi”. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nasr Al-Forobiy esa musiqaning shaxs shakllanishiga aniq ta'sirini quyidagicha bayon etadi: “Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi. Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir”. Musiqa inson ruhiyatiga va aqliy rivojiga bebaho ta'sir o'tkazadi. Ch. Darwin umrining oxirlarida quvvai xofizasi (xotirasi) va fikrlash qobiliyatining pasayishidan shikoyat qilib

yozadi: “Agar menga ikkinchi bor dunyoga kelish nasib bo‘lganda edi, endigi hayotimda loqal haftada bir marta bo‘lsa ham, bir necha she‘r o‘qishni o‘zimga qoida qilib olardim”. Shu bois o‘quvchilarda inson ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo‘lib turadi. Aqliy va jismoniy rivojlanishning garmonik qo‘shilishiga ahloqiy soflik, san’atga va hayotga estetik munosabat, shaxsning to‘laqonli kamolga yetishida muhim shartlaridan biridir. Bu olijanob maqsadga erishishda musiqa tarbiyasi katta ahamiyatga egadir. O‘quvchilarqobiliyati musiqa faoliyati davomida rivojlanib boradi. Qobiliyat-bu insonning kerakli ko‘nikma, malaka, ilm olishi hamda uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llay olishga qaratilgan psixologik xususiyatlari tushuniladi. O‘zbekistonda talim-tarbiya tizimi hamma o‘quvchilar uchun bir xil imkoniyatlar yaratilgan. Shu bilan birga har bir o‘quvchida mavjud bo‘lgan iqtidor, qobiliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib ularning individual o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuvni inkor etmaydi. Qobiliyatlarning namoyon b‘lishi uchun esa inson ko‘p mehnat qilishiga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini e‘tiborga olib uni ilk yoshidan boshlab to‘g‘ri tashkil qilish va yo‘naltirish muhim pedagog vazifadir. Aks holda bola rivojlanishida orqada qolishisiziladi. Misol uchun, bolani ilk yoshidan boshlab musiqiy tovushlarning balandligi bo‘yicha tushuncha berilmasa u yetti yoshida bu vazifalarni uddalay olmaydi. Musiqaviy rivojlanishning muhim xususiyatlari quyidagilardir:

- eshitish sezgisi, musiqaviy eshitish qobiliyati;
- har xil xarakterdagi musiqalarga emotsional munosabatning sifati va darajasi.

Qo‘shiq kuylashda, musiqaviy ritmik harakatlar bajarishda oddiy ko‘nikmalar quyidagicha hosil bo‘ladi:

Birinchi sinfdan boshlab o‘quvchilarning ovoz diapazonini aniqlash va uni kengaytirib borishga alohida e‘tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinflarda ko‘pgina o‘quvchilarning ovoz diapazoni, birinchi oktava «lya» dan yuqoriga o‘tmaydi. Zero, dasturdagi qo‘shiqlarning diapazoni birinchi oktava «do» dan uchinchi oktava «do» gacha ko‘tariladi. Natijada, o‘quvchilar qo‘shiqni bu pardalarda noto‘g‘ri ijro

etadilar yoki umuman ayta olmaydilar. Shu tufayli o'quvchilarni ikki guruhga ajratish, ya'ni ovozi yuqori pardalarni ololmaydigan o'quvchilar jim eshitishlari qolganlari kuylashi talab qilinadi. Shuningdek, ikki ovozga ajratish o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishda qo'l keladi. Har bir guruh ovozining alohida kuylashi o'quvchilarni ko'p ovozlikka tayyorlab boradi va ularda mustaqillik hissini tarbiyalaydi.

Ikkinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra birinchisinf o'quvchilariga o'xshash bo'ladi. Qo'shiq, raqs, marsh janrlarining musiqiy xususiyatlarini farqlash kabi tushunchalar hosil bo'ladi. Qo'shiq kuylashga e'tibor kuchayadi, o'qituvchi ovozi va cholg'u asbobi ovoziga tayanib o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, kuyning bir jumlasini ketma-ket ijro etishdan ikki ovozlik hosil qilib qo'shiqlar o'rgatadi. Do1-Re2 diapazonidagi bir va ikki ovozli qo'shiqlar kuylatiladi. Musiqa xarakteri va janr ifodalarini anglash va tasvirlashda musiqali-ritmik harakatlardan va o'quvchilar cholg'u asboblari keng foydalaniladi. O'quvchilar o'zbek xalq qo'shiqlari va cholg'u asboblari hamda kompozitorlar ijodi bilan tanishtiriladi.

Uchinchi sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik xarakteriga ko'ra 1-2 sinflardan sezilarli darajada farq qiladi. Ikkinchi sinfda olingan bilim va malakalar musiqa qonuniyatlariga doir yanada aniqroq nazariy bilimga aylanadi. Ularning diqqat-e'tiborlari turg'un, nutqi ravon bo'ladi, ovoz apparatlari shakllangan bo'lib ikki ovozli asarlarni kuylash malakasiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning musiqa darsiga bo'lgan qiziqishlari yanada ortib boradi.

To'rtinchi sinfda o'quvchilar psixologik jihatdan hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat-e'tibori teran, jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajmi jihatidan kattaroq bo'lgan musiqiy asarlarni ham eshitishga qodir bo'ladilar. Taqqoslash, izlanish jarayonida ikki ovozli qo'shiqlardan jo'rsiz (a'capella) asarlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Musiqa tinglash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga o'zbek xalq musiqasi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati, o'zbek xalq musiqasining qardosh xalqlar musiqasi bilan yaqinligi va

o'xshashligi haqida ma'lumot berishi lozim. Bundan tashqari musiqiy to'garaklarga o'quvchilarni jalb etish, dastalar (ansambl) tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchi sinfda tayanch ta'lim bosqichi boshlanib, o'quvchilarning psixologik tomonlari ancha o'zgargan bo'ladi. Ular diqqat-e'tiborli, fanlarga nisbatan qiziqish, izlanish, o'zining sevgan mashg'uloti mavjudligi bilan farq qiladi. Fikrlash birmuncha rivojlanganligi sababli, ko'rgazmali quoldan ko'ra, so'z orqali mantiqiy idrok qobiliyatlari rivojlana boshlaydi. Ammo vokal-xor malakalari, ovoz diapazonlari notekis bo'ladi. (birinchi ovoz Do 1-mi2, ikkinchi ovoz Dol (si kich)-Do2(re2) diapazonlarida bir va ikki ovozli qo'shiqlar kuylash). Shu sababli ularda sof unison ansambl ikki ovozda kuylash ishi murakkab amalga oshadi.

Oltinchi sinflarda o'quvchilarda o'spirinlik davri boshlanib, ular tabiat va hayot qonunlariga jiddiy qiziqadilar. Psixologik-fiziologik jihatdan organizmda faol o'zgarishlar ro'y beradi. Bo'yining o'sishi, ovozining o'zgarib borishi, fanlarga qiziqishi va mustaqil fikr yurita olish qobiliyatlari rivojlanadi. Natijada bosh miya yetarli darajada ozuqa ololmay horg'inlik holatlari ro'y beradi. Bu davrda o'qituvchi ularga jiddiy va mehribon munosabatda bo'lishi, do'stona suhbatlashishi talab etiladi.

Yettinchi sinf o'quvchilarida psixologik-fiziologik jihatdan ayrim o'zgarishlar paydo bo'ladi, emotsional holatlari, darsga nisbatan horg'inlik alomatlari paydo bo'ladi. Dars davomida o'quvchilarning kayfiyatlari o'zgarib turadi. Mazkur holatda dars maqsadlariga erishishning yagona sharti sinfdagi har bir bolani yaxshi o'rganib, dars mazmunini yuksak musiqaviy darajada olib borishdan iboratdir. Bu davrda ko'pchilik o'quvchilarda mutatsiya davri avj oladi, shunga qaramasdan ovozlar jarangdor yangraydi. O'qituvchi ularning ishchi diapazonini toliqtirmasligi va qo'shiq kuylash miqdorini buzmasligi lozim.

### **Xulosa:**

O'quvchilarni musiqa yordamida tarbiyalashda asosiy vazifa, ularga o'zbek musiqasining butun rivojlanish tarixi davomida to'plangan barcha musiqa madaniyati boyliklarini yetkazish, ular onggiga singdirish lozim. Zotan, shu

jarayonda milliy asoslar kichik yoshdagi o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini o'stirishda tabiiy va qulay zamin hisoblanadi.

**References:**

- 1.Orifjonov Husniddin Sohibjon, U. (2023). The Role of Folklore and Ethnographic Communities of the Uzbek Intangible Cultural Heritage in the Musical Art. *International Journal on Integrated Education*, 6(1), 114-117.
- 2.Husniddin, O. (2023). Traditions of Teacher and Student, Theoretical and Practical Harmony in Teaching Shashmakom. *International Journal on Orange Technologies*, 5(2), 20-25.
- 3.Khuraliyeva, M., & Orifjonov Husniddin Sohibjon, U. (2023). Art of Composers of Fergana Valley the Continuity and Endurance of Their Traditions. *International Journal on Integrated Education*, 6(1), 111-113.
- 4.Orifjonov, H. Operas That Contributed to the Emergence of Uzbek Opera. *International Journal on Orange Technologies*, 4(5), 11-18.
- 5.Орифжонов, Х. С. У. (2020). К вопросу о национальных особенностях народной и классической музыки узбеков. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)), 109-111.
- 6.Sohibjonovich, O. K., & kizi, R. D. R. (2023). To Promote the Importance of Developing Folk and Traditional Performing Arts in Uzbekistan. *International Journal on Orange Technologies*, 5(4), 57-61. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/D7PZH>
- 7.Orifjonov H. S. The formation of Uzbek folk music and the way of progress // *European Journal of Arts*, 2023, №2. – С.15–19. DOI: <https://doi.org/10.29013/EJA-23-2-15-19>
- 8.Marifatkhon, K. (2021). To Form in the Minds of Students Studying in Higher Education Methods of Working with the Songs of Talqin and Nasr From the 1st Group Branches of Shashmaqom. *International Journal on Orange Technologies*, 3(12), 113-119.
- 9.Orifjonov H. S. Characteristics of 21st century compositional creativity of Uzbekistan // *European Journal of Arts*, 2023, №2. – С. 38–42. DOI: <https://doi.org/10.29013/EJA-23-2-38-42>
- 10.Husniddin Soxibjon O'G'Li Orifjonov (2023). O'ZBEK OPERA SAN'ATINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI. *Oriental Art and Culture*, 4 (2), 570-577.
- 11.Marifatkhon, K. (2022). TO TEACH HIGHER EDUCATION STUDENTS THE LIFE AND WORK OF ABDULAZIZ HOSHIMOV AND AKRAM HOSHIMOV. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 931-934.